

CHARACTERISTICS OF THE SYNONYMOUS LINE IN THE UZBEK LANGUAGE

Muborak Meyliqulova

O'zMU Xorijiy filologiya fakulteti magistranti

E-mail: muborakmeyliqulova0@gamil.com.

Abstract: In this article, the phenomenon of synonymy in Uzbek linguistics, its characteristics, and its role in linguistics are analyzed in detail.

Key words: *synonymy, linguistics, Graduonimy*

O'ZBEK TILIDA SINONIMIK QATORNING XUSUSIYATLARI

Muborak Meyliqulova

O'zMU Xorijiy filologiya fakulteti magistranti

E-mail: muborakmeyliqulova0@gamil.com.

Annotasiya: Ushbu maqolada o'zbek tilishunosligida sinonimiya hodisasi uning xususiyatlari hamda tilishunoslikdagi o'rni masalalari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *sinonimiya, tilishunoslik, Graduonimiya*

Tilshunoslikda sinonimiya hodisasi chuqur tarixiy ildizlarga ega, juda keng tahlil qilingan hodisa bo'lib, sinonimlar nafaqat tilshunoslikning, balki adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, psixologiya kabi qator fanlarning ham o'rganish obyektidir. Sinonimiya haqida tilshunoslikda turlicha qarashlar mavjud. Sinonimlarni o'rganish dastlab faqat leksik sathda bo'lib, “..odatda, “bir xil ma'noli so'zlar”, “bir-biriga yaqin ma'noli so'zlar”, ”yaqin, yoki bir ma'noli so'zlar”, “uslubiy bo'yoqlari , qo'llanish sathlari bilan farqlanuvchi so'zlar sifatida ta'riflanadi”.[1] “O'zbek tilishunosligida sinonimlarga berilgan ta'rifga e'tibor berilsa, ularni belgilashda dastlab leksemalarning ma'no juhatidan bir xilligiga[2] , so'ngra ma'nolarning umumiyligiga[3] , keyinchalik esa ma'noviy

o’xshash(aynan)likka asoslanilgani kuzatiladi”. O’tgan asrning 70-yillariga qadar sinonimlik ma’noning aynan bir xilligi asosida belgilangan bo’lsa, 80-yillarga kelib, so’zning semantik strukturasi bir qancha olimlar tomonidan semik tahlil asosida o’rganila boshlandi (Sh.Rahmatullayev, H.Ne’matov, E.Begmatov, R.Rasulov shular jumlasidan) . Sinonimlarni belgilashga ham semik tahlilning tatbiq etilishi sinonimik qatorlarga birlashtirilayotgan leksik birliklar ma’nolaridagi aynanlik, umumiylilik va farqlilikka aniqlik kiritish imkoniyatini yaratdi. Shuning uchun o’zbek tilshunosligida sinonimlarni belgilashda an’anaviy va zamonaviy qarashlar tubdan farq qiladi. Keyingi davrda sinonimlarning leksik ma’nosini semik tahlil qilish keng tus oldi.[4] Sinonimlarga bunday yondashuv ulardagi aynanlik va farqlilik belgilarini ajratishda muhim ahamiyatga egadir. Til sathi birliklarida kuzatiluvchi aynanlikni ularning ma’nosi, shakli, vazifasi, uslubiy belgisi kabilarning teng kelishida, o’zaro muvofiqligida ko’rish mumkin. Bu kabi aynanliklar farqlanishlar bilan o’zaro aloqada bo’lib, bir-biriga nisbatan belgilanadi o’zgarishlarining bevosita kuchayib, rivojlanib borishi natijasida nisbiy o’zgachalik xususiyatlarini kasb eta borish holatidir. Zidlilik aynanlikdan sifat o’zgarishlari orqali o’sib chiqar ekan, bu jarayonda yangi mohiyatning yuzaga kelishi sodir bo’ladi. E.N.Miller qarashlariga ko’ra, zidlilik aynanlikning dialektik inkori, aynanlikning noo’xshash ko’rinishidir. Zidlilik aynanlikdan variantlilik, farqlilik orqali (tadrijiy “sakrash” yo’li bilan) hosil bo’lgan boshqa aynanlikni, ya’ni yangi narsa bo’lib, o’zidan keyingi “zanjirli” jarayonning (aynanlik-farqlilik-zidlilik) dastlabki xalqasini hosil qiladi.[5] Ko’rinib turibdiki, aynanlikdan farqlilikka o’tishda zanjirsimon aloqa shakllanadi va bunda aynanlik birinchi tugunni, farqlilik esa so’nggi tugunni aks ettiradi. Keyingi davrlarda tilshunoslikda chuqur tahlil qilinayotgan bu zanjir hodisasi lug’aviy darajalanish — graduonimiya hodisaside.

Gradual oppozitsiya (lot. gradus — qadam, bosqich) — Q. Darajali oppozitsiya. Graduonimiya sinonimik qatorda farqlilik omiliga asoslangan

darajalanishdir. Sinonimlik hodisasi ham dastlab leksik sathda o'rganilgan bo'lsa-da, keyinchalik morfologik va sintaktik sinonimlar ham mavjudligi aniqlandi. Barcha sathlardagi sinonimlarga quyidagi ta'rifi berish mumkin: "Sinonimlar bir umumiylar ma'no-mazmunga ega bo'lgan, lekin emotsiyal-ekspressiv hamda funksional jihatdan farqlanuvchi til birliklaridir". Sinonimlik variantlilikdan farqli ravishda fonetik sathda mutlaqo uchramaydi. Leksik sinonimlar semadagi ma'no bo'yog'ining darajalanishi, uslubiy xoslanishi, ba'zan salbiy -ijobiy bo'yoqqa egaligi bilan farqlanadi. Buni matematik koordinatalr o'qi orqali quyidagicha ko'rsatish mumkin.

Sinonimlar morfologik sathda, asosan, ko'makchi morfemalar shaklida namoyon bo'lib, ularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. So'z yasovchi morfemalar sinonimiysi.
2. Lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfemalar sinonimiysi.
3. Munosabat shakli hosil qiluvchi morfemalar sinonimiysi.

So'z yasovchi qo'shimchalar sinonimiysi ham o'z o'rnida quyidagi turlarga bo'linishi mumkin:

- a) Ot yasovchilar: tilchi – tilshunos, chizgi – chiziq;
- b) Sifat yasovchilar: benomus – nomussiz , baodob – odobli ;
- c) Ravish yasovchilar: mardona – mardlarcha , tiriklayin – tirigicha;
- d) Fe'l yasovchilar: senlamoq –sensiramoq, birlashmoq – birikmoq kabi.

Lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfemalar esa faqat grammatik ma'no hosil qilgani sababli ikki xil holatdagi ma'nodoshlikni hosil qiladi.

1. To'g'ridan to'g'ri ma'nodoshlik: sarg'ish (sariq+ish) – sarg'imtir (sariq+imtir), ko'rildi –solindi.
2. Ma'lum garammatik ma'noni ifodalashdagi ma'nodoshlik: majhul va o'zlik nisbat fe'llari o'timli fe'lni o'timsiz qiladi kabi.

Munosabat shakli hosil qiluvchi morfemalar , asosan, ikki xil bo'lib, ular ismga xos munosabat shakllar hamda fe'lga xos munosabat shakllarga bo'linadi.

Ismga xos munosabat shakllar sintaktik sinonimiyaning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Masalan:

Dala (bosh kelishik) aylandim.

Dalani aylandim.

Dalada aylandim.

Fe'lga xos munosabat shakllar esa to'g'ridan to'g'ri sinonimlik hosil qilishi mumkin. Masalan: keldim – kelyapman (shaxs-son: I shaxs, birlik), bor (0) –borgin (mayl:II shaxs, buyruq mayli).

Sinonimlik o'zbek tilshunosligida ma'nodoshlik deb ham yuritiladi. Bu atama ko'proq leksik sinonimlarga nisbatan qo'llangan. Sintaktik sinonimlar uchun mazmundoshlik atamasini taklif etamiz.

Sintaktik sathda sinonimlik hozirgacha shakliy sintaksis tamoyillari bilan tasniflangan bo'lib, ularda, asosan, morfologik belgi – ko'rsatkichlar (ko'makchi morfemalar va yordamchi so'zlar) ma'nodoshligi bosh omil hisoblanadi.

Sintaktik sinonimlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. So'z birikmalari sinonimiyasi.
2. Gaplar sinonimiyasi.

Sintaktik sinonimlarni tasniflashda turkolog olimlar har xil fikrlarni bildirgan bo'lsa-da (Y.P.Shendels 3 turga, V.P.Suxotin hamda V.I.Kononenko 4 turga, S.M.Ibragimov esa 9 turga bo'ladi), lekin asosiy klassifikatsiya yuqorida ko'rsatilgan ikki turni ifodalaydi xolos. Sinonim gaplar oddiy tushunchadagi leksik sinonimlardan quyidagicha farqlanadi: 1.Leksik sinonimlar til birligi hisoblansa, sinonim gaplar nutq birligi sanaladi. 2.Leksik sinonimiya ko'pincha, bir necha leksik birliklar o'rtasida kuzatilsa, gap sinonimiyasi, asosan, ikki sintaktik konstruksiya o'rtasida yuzaga chiqadi. Sintaktik sinonimlar noverbal vositalar bilan qo'llanishi mumkin. "Pantamimo va xareografiyada yuz va tana harakatlari bilan noverbal nutq amalga oshiriladi. Bu harakatlar, ko'pincha, hamma tillarda so'zlashuvchilar va har xil madaniyat egalariga bir xilda

tushunarli va ta'sirli kechadi. Eslang, kino hali ovozlashtirilmagan davrda tomoshabinlar kadr ostidagi titrdan ko'ra qahramonlarning yuz ifodasi va harakatlari orqali voqeani yaxshiroq idrok etishgan. Shuning uchun ham jahonning mashhur kinorejissori Charli Chaplin kino ovozlashtirilganda ham undan foydalanmadi. Uning oq-qora tasvirdagi ovozsiz kadrlari hamon hammani hayratga solib kelmoqda. Buning sababi ulardagi mimikaning va harakatlarning verbal vositalardan ko'ra ko'proq ma'no ifodalashidadir".

Sintaktik sinonimiya (mazmundoshlik)ni sintaktik parallelizm deb yuritish biroz noaniqlik tug'diradi, chunki parallelizm leksik sathda variantlilikni ifodalasa, sintaksisda, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, parallel sintaktik strukturali gaplarni ham ko'rsatadi. Shuning uchun, mazmuniy parallelizm atamasi o'zini to'la oqlamaydi. Bizningcha, sintaktik sinonimiya ma'nosida mazmundoshlik atamasi qo'llansa va sintaktik sinonimiyani hosil bo'lishiga xizmat qiluvchi birliklar , ya'ni grammatik shakllar – bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi vositalar leksik sinonimiyani hosil qiladimi, sintaktik sinonimiyanimi , qayta tekshirib ko'rish lozim.

Sinonimlarga berilgan ta'riflarda dastlab bir xillik, so'ngra umumiylig, keyinchalik esa o'xhash (aynan)lik tamoyiliga asoslanildi.[6] O'tgan asrning so'nggi choragida "ma'nosi aynan bir" tamoyili urfdan qoldi, sinonimlarga lison va nutq dixotomiysi nuqtai nazaridan e'tibor berila boshladi.

Sinonimik qatorning chegarasini belgilashda bosh so'zning ahamiyati katta. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, lug'aviy paradigmalarning bir qator sifatida namoyon bo'lishi va har bir qatorning o'z bosh so'zi bo'lishi tabiiy. Bitta leksemaning mazmuniy maydon hosil qiluvchi a'zolari mavjud bo'lsa, umumiyl ma'noga ega bo'lgan so'z bosh so'z ham mavjud. Ilmiy adabiyotlarda bosh so'z terminiga sinonim sifatida uslubiy betaraf, neytral, mo'tadil, dominant so'z kabi terminlar qo'llangan. Ushu bo'limda sinonimik qatorning umumiyl ma'noga ega, uslubiy betaraf, har jihatdan neytral bo'lgan leksemani bosh so'z termini qabul qilindi va qolgan o'rirlarda xuddi shunday qo'llandi.

Bosh so‘z sinonimik qatordagi barcha so‘zlar bildirgan umumiy ma’noni ifodalashi va barcha uslublar uchun, barcha zamon uchun bir xilda foydalana oladigan so‘z bo‘lishi lozim. Masalan, dushman, yov, g‘anim, ag‘yor, yog‘i sinonimik qatorida dushman so‘zi bosh so‘z sifatida tanlangan. Chunki u o‘z qatoridagi boshqa so‘zlar orasida eng keng qo‘llaniladigan va barcha uslublar uchun umumiy xoslangan so‘z.

Sinonimik qator uchun bosh so‘z muhim hisoblanar ekan, avvalo bosh so‘zning chegarasini belgilab olish zarur. Bosh so‘zning chegarasi bir qarashda aniqqa o‘xshaydi: umumiy ma’noga ega, barcha uslublar uchun xoslangan, keng qo‘llanadigan so‘zlar bosh so‘z sifatida tanlanadi. Vaholanki, bitta qatorda bir nechta shunday so‘zni uchratish mumkin.

Jilmaymoq, kulimsiramoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq sinonimik qatorida ikkita uslubiy betaraf so‘z mavjud: jilmaymoq va iljaymoq. Ushbu so‘zlarning O‘TSILda keltirilgan izohida quyidagicha fikr yuritilgan: Ovoz chiqarmay ko‘z, lab harakati bilan kulgi ifoda qilmoq, miyig‘ida kulmoq. *Jilmaymoq* va *iljaymoq* so‘zlari stilistik jihatdan neytral hisoblanadi. Irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq so‘zlari salbiy ottenkaga ega, Bu salbiy ottenka *irjaymoq* so‘ziga nisbatan *tirjaymoq* so‘zida, *tirjaymoq* so‘ziga nisbatan *ishshaymoq* so‘zida, *ishshaymoq* so‘ziga nisbatan *irshaymoq* so‘zida kuchliroq. Ushbu sinonimik qatorda ikkita uslubiy neytral so‘z bo‘lishiga sabab, shaxsiy munosabat bildiruvchi sememaning ikkalasi ham (ijobiylar va salbiylik) mavjudligidir.

Jilmaymoq, kulimsiramoq ijobiylar bahoga ega sinonimlar hisoblansa, sinonimik qatorning boshqa a’zolari salbiy bahoni ifodalash uchun xizmat qiladi. Shuning uchun bu sinonimik qatorda ikkita bosh so‘z hosil bo‘lgan. Aslida bu qatorda ijobiylar va salbiylik bo‘yog‘i aralashib ketmasligi kerak. Chunki bu sinonimik qator, graduonimik qator emas. Agar ushbu qator graduonimik qatorga yuzasidan tahlil qilinsa, belgining salbiy bo‘yoqdorlik oshib borishiga ko‘ra xususiyati orqali darajalanish qatorini tiklash mumkin.

Sinonimlar ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar, qoidasi asosida sinonimlar guruhini shakllantirish va shunga asosan bosh so'z tanlab olish zarur.

Sinonimik qatorda bosh so'zni belgilashda mavjud bilimlar asosida mo'tadillik, faollik, birikuvchanlik mezonlariga tayanish mumkin.

1. Mo'tadillik – Bu mezon leksemaning atash (denotativ) semasi bilan bog'liq va u sinonimik qatorni to'g'ri shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Denotativ sema leksemaning borliqdagi harakat-holatlik, narsa-predmetlik, miqdorlik, belgilik xususiyatini atovchi, nomlovchi semadir. Ular borliq, tushuncha va sememani bir-biriga bog'lab turadi. Ayni shu sema bosh so'zni tanlashda juda muhim sanaladi. *Yaxshi, tuzuk, durust, binoyi* sinonimik qatorida bosh sifatida *yaxshi* so'zi qabul qilinadi. Mo'tadillik omili asosida tahlil qilinsa, *yaxshi* so'zi *tuzuk, durust, binoyi* so'zlariga nisbatan mo'tadil va umumiy. Ularni birlashtirib turuvchi ma'no "belgi" tushunchasi. Sinonimik qatordagi so'zlarning barida shu ma'no mavjud. Ammo boshqa a'zolarga nisbatan *yaxshi* so'zida neytrallik mavjud, *tuzuk, durust, binoyi* so'zlarida esa belgining kuchsizroq ifodasi mavjud. Shunga asosan, *yaxshi* so'zi bosh so'z hisoblanadi.

2. Faollik – Leksemanining ifoda (konnotativ) semasi orqali aniqlash mumkin bo'lgan mezon. Ifoda sema semema tarkibida turli qo'shimcha ma'no (uslubiy bo'yoq, shaxsiy munosabat, qo'llanish doirasi va davri)ni atovchi semema turi. Bu sema sinonimik qatorda so'zlarning to'g'ri tartibda joylashishi muhim hisoblanadi va shunga asosan bosh so'z aniqlanadi. *Yaxshi, tuzuk, durust, binoyi* sinonimik qatorining bosh so'zi *yaxshi* leksemasini faollik omili asosida tahlil qilinganda, *yaxshi* so'zida boshqa qator a'zolariga qaraganda uslubiy "shaxsiy baho" semasi mavjud emas, barcha uslublarda keng qo'llanadi, qo'llanish doirasi va davri chegaralanmaganligining guvohi bo'lish mumkin. Shu asosda *yaxshi* so'zining takrorlanuvchanlik va shu qator a'zolariga nisbatan qo'llanilish darajasi ortiqligi bosh so'z ekanligining isbotidir.

3. Birikuvchanlik – Leksemaning funksional semasi ushbu mezon uchun asos bo‘la oladi. Leksemaning birikuv-biriktiruv (valentlik) imkoniyatini, lisoniy qolipda qanday o‘rinni egallashini bildiruvchi semadir. Bosh so‘z o‘z sinonimik qator a’zolaridan farqli ravishda istalgan uslubda o‘zi birikishi lozim bo‘lgan so‘z bilan hech qanday g‘alizliksiz birika olish xususiyatiga ega bo‘ladi. *Yaxshi* bosh so‘zining birikuvchanlik xususiyati *tuzuk*, *durust*, *binoyi* so‘zlariga nisbatan keng: *yaxshi baho*, *yaxshi sifat*, *yaxshi xulq*, *yaxshi yangilik* va hokazo. Aniqlovchi aniqlanmish asosida hosil qilingan ushbu birikmalarni qatorning boshqa a’zolarida qo‘llab ko‘rilsa, ma’no o‘zgaradi: *tuzuk baho*, *tuzuk sifat*, *tuzuk xulq*, *tuzuk yangilik*; *durust baho*, *durust sifat*, *durust xulq*, *durust yangilik*; *binoyi baho*, *biboyi sifat*, *binoyi xulq*, *binoyi yangilik* kabi. Sinonimik qator a’zolarining barchasi odam leksemasi bilangina valentlikka kirisha oladi. *Yaxshi odam*, *tuzuk odam*, *durust odam*, *binoyi odam*. Ammo *odam* so‘zining sinonimi hisoblangan *inson* so‘zi bilan faqat *yaxshi* so‘zi valentlikka kirisha oladi.

Yuqoridagilar asosida quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

- bosh so‘z sinonimik qatorning boshqa a’zolariga nisbatan ma’no jihatdan “kambag‘al” hisoblanadi. Masalan, *yuz* so‘zi *oraz*, *chehra*, *bashara* so‘zlarida shaxsiy munosabat ham mavjud bo‘lib, ijobiyllik, salbiylik baholari qo‘shimcha ma’no sifatida vujudga keladi;
- bosh so‘zning qo‘llanish doirasi boshqa sinonimik qator a’zolaridan kengroq bo‘ladi;
- bosh so‘z sinonimik qator a’zolari uchun umumiy bir ma’noga ega bo‘lganligi sababli boshqa ma’nodoshlari bilan almashib kela oladi;
- boshqa lug‘aviy paradigmalar uchun muayyan sinonimik qatordan “vakil” sifatida bosh so‘z tanlanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Orifjonova Sh, Lug‘aviy sinonimiya va graduonimiya munosabati xususida, // // O’zbek tili va adabiyoti, 6- son, 2007, 109-b

2. Jumaniyozov R. Sinonimlar ta’rifi masalasi// O’zbek tili va adabiyoti. 1970,1-son,5-bet.
3. Hojiyev A. O’zbek tili sinonimlarining izohli lug’ati. – Toshkent. O’qituvchi,1974,45-46-betlar
4. Rahmatullayev Sh.Semik tahlil va leksik sinonimiyanı ta’riflash masalasi// O’zbek tili va adabiyoti. 1979,5-son,55- bet.
5. 5 Rahmonov G’. O’zbek tili sinonimlarida darajalanish// O’zbek tili va adabiyoti. 2020,3-son,111-bet
6. Orifjonova Sh.G,O’zbek tilida lug’aviy graduonimiya.NDA.Toshkent,1996; Bozorov.O,O’zbek tilida darajalanish. NDA.Toshkent,1997;Xudoyberdiyeva .L.S,O’zbek tilida nominative birliklarning darajalanishi. NDA.Toshkent,2003.
7. Миллер. Э.Н. Содержательные функциональные основания единства антонимии номинативных единиц// Филологические науки , -М.,1987.Н 6.44-49.
8. Hojiyev A. O’zbek tili sinonimlarining izohli lug’ati. – Toshkent. O’qituvchi,1974,31-bet.
9. Polvonova B. O’zbek tili grammatikasi. Farg’ona. “Classik”, 2021, 28-bet.